



TA'LIM MUASSASALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI HUQUQIY TA'LIM VA TARBIYA

Sadriddinov Abrorjon Sayfulla o'g'li

Namangan viloyati

Namangan shahridagi Prezident maktabi

tarix fani o'qituvchisi

Tel: 97 375-45-07

E-mail: sadriddinovabrорjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7329130>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2022

Accepted: 14th November 2022

Online: 16th November 2022

KEY WORDS

Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, kuchli demokratik institutlar, adolat tuyg'usi, "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash", Korrupsiyani qabul qilish indeksi, muammoli ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim, mehnatga asoslangan ta'lim, korrupsiyaga qarshi qaratilgan video materiallar.

ABSTRACT

Demokratik huquqiy davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish sohasidagi keng ko'lamlı amaliy tadbirlar bugungi kunda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilmoqda. Ammo jamiyatimizdagi korrupsiya illatining turli ko'rinishlarda saqlanib qolayotganligi Vatanimiz taraqqiyotining tezligiga g'ov bo'lmoqda. Jamiyatning turli sohasida ushbu illat ko'rinishlarini mavjud bo'lishi, unga qarshi kurashishning rang-barang shakllarini tahlil qilishni talab qiladi. Xususan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiyaga asosiy e'tiborni qaratish lozimdir.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligi e'lon qilingach, tarixan qisqa vaqt mobaynida jamiyat hamda davlat boshqaruvi tizimida qonuniylik va huquq-tartibot ishlarini tashkil etishning huquqiy asoslari shakllantirildi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish faoliyati ham yo'lga qo'yildi. Respublikamizda bugungi kunda ham korrupsiya illatini davlat va jamiyat hayotidan mutlaqo yo'qotish bo'yicha islohotlar hamda bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan

"jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur", - deya yana bir bor ushbu masalaga alohida to'xtalinib o'tilgan edi^[1]. 2020-yilning 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilingan Murojaatnomada esa "... islohotlar samaradorligi muhim to'rtta omil - qonun ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi qat'iy kurash, institutsional salohiyatni



yuksaltirish, kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog'liq ekanligi aytib o'tiladi"[2].

XXI asrning 3-dekadasida yashayotgan bo'lsak-da, dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri – bu korrupsiyaga qarshi kurashish masalasidir. U har qanday davlat hamda jamiyatda inson huquq va erkinliklarining oyoqosti bo'lishiga olib keladi. Ayni vaqtda, mamlakatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga putur ham yetkazadi. Korrupsiyaga qarshi kurash – bugungi kunda jahon siyosatining muhim va xalqaro ahamiyatga ega masalasidir.

Qadimdan xalqimiz “adolat tuyg'usi”ni yuksak qadrlagan. Buyuk Sohibqiron Amir Temurning: “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!”, - deya aytgan so'zlari xalqimiz adolatni hamma narsadan ustun qo'yanligiga muhim ishoralardan biridir[3]. Shunday ekan, bugungi kunda mamlakatimizda milliy davlatchilikni shakllantirish, xalqimiz farovonligini oshirish, farzandlarimiz uchun hech kimdan kam bo'lmagan hayotni barpo etish maqsadiga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar samarasiz bo'lib qolmasligi lozim. Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi

sifatida **Transparency**

International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan **“Korrupsiyani qabul qilish indeksi”** da O'zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o'rin, 2018 yilda esa 158-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi. Bundan tashqari, **Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik”**

indikatorida O'zbekiston 2019-yilda 0,38 ball bilan 95-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020-yil bo'yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o'rinni egallab, 6 pog'onaga ko'tarilganligi malakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir[4]. Umumiy holatda, O'zbekiston Respublikasi **Transparency International** xalqaro tashkilotining statistik ma'lumotlariga qaraganda korrupsiya indeksi 2007-2020 yillar oralig'ida **9 ballga** yoki **175-o'rindan 146-o'ringa** ko'tarilgan[5]. Ushbu ko'rsatkichlar yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning muhim yutug'idir.

Korrupsiya davlatni ich-ichidan yemirishi jahondagi ayrim davlatlarning tajribasidan ma'lum:

- jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi;
- aholini, xalqni olib borilayotgan islohotlarga bo'lgan ishonchini yo'q qiladi;
- jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarda adolatsizlikni vujudga keltiradi;
- eng yomoni, aholi o'rtasida turli xil noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin[6].

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning bir nechta usullari mavjud. Jumladan, ichki nazorat[7], tashqi nazorat[8] hamda saylov tizimi orqali kurashish[9]. Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi[10]. Dunyoning rivojlangan davlatlarida **tajribadan o'tayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish**



uslublari[11]ni tadqiq etib borishni lozim deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizda korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida – **aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini** sayozligini ko'rsatish mumkin. Aholining huquqiy savodxonligini pastligi ya'ni aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik holati mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratilishiga olib keladi[12]. Huquqiy ong esa o'zining eng umumiy ma'nosida – bu odamlarning qonunga bo'lgan munosabatidir[13]. Hozirgi kunga kelib, korrupsiyaga qarshi kurashishda – *aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari kuchaytirish* masalalari kun tartibidagi asosiy vazifalarga aylanmoqda. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiya holatiga yo'l qo'ymaydilar[14].

Korrupsiyaga qarshi huquqiy ong – bu korrupsiya xatti-harakati va unga qarshi choralar to'g'risida mafkuraviy va psixologik jihatdan aniq va tan olingan, huquqiy va umum e'tirof etilgan g'oyalar, qarashlar, fikrlar, e'tiqodlar, his-tuyg'ular va kayfiyatlar majmuasi[15].

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi – aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida

qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi.

Aholining barcha qatlamlari orasida huquqiy savodxonlik darajasini oshib borishi, mustahkam irodali, o'z huquqini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimi yaratilmoqda[16]. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmini belgilovchi asosiy manba O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni[17] hisoblanib, uning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu Qonunda shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishiga – korrupsiya deb ta'rif berilgan[18]. Ushbu Qonunda belgilangan asosiy maqsadlar – *korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, shuningdek korrupsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan to'liq bartaraf etishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga*



toqat qilmaslik muhitini yaratishga qaratilgan. Qonunning 3-bobining 16-moddasi – “Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish”, 17-moddasi – “Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish”, 18-moddasi – “Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya” deb nomlangan. Demokratik ruhda tarbiyalangan jamiyatda korrupsiyaga yo’l qo’yilmaydi. Demak, fuqarolarni demokratik ruhda tarbiyalash hamda tarbiyani birinchi navbatda o’zimizdan, ya’ni biz yoshlardan boshlash kerak[19]. Umuman olganda, bu qonun bugungi kunda oldimizga qo’ygan eng ezgu maqsadlarimiz, milliy g’oyamizda ifoda qilinayotgan **“Yangi O’zbekiston – yangicha dunyoqarash”**ni fuqarolarimizda shakllantirishda muhim o’rin egallaydi[20]. Yana bir muhim jihat, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmonida xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish asosiy maqsadlardan biri sifatida ko’rsatib o’tilgan[21]. Xususan, korrupsiyani oldini olishda jamiyatda adolatni qaror toptirish zaruriy shartdir. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, ayniqsa, ta’lim muassasalaridagi faoliyatga jiddiy e’tibor qaratish muhimdir. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri - aholining

huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hisosblanadi[22]. Bolalikdan korrupsiyaga qarshi toqatsizlik kayfiyatini uyg’otish uchun maktablarda antikorrupsion darslar tashkil etilishi foydadan holi bo’lmaydi. Darslarda “Korrupsiya nima?” yoki “Korrupsiyaning qanday zararlari bor?” kabi mavzularda bolalar tushunadigan sodda tilda o’quvchilar bilan suhbatlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Darslarda korrupsion holatlarga aniq misollar keltirilib, uning oqibatlari va qarshi kurashish usullari haqida tushunchalar berilishi lozim. Korrupsion holatlarning oqibatlari bo’yicha mustaqil va tanqidiy fikrlarini bildirishlari uchun o’quvchilarga imkon berish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda rolli o’yinlar o’ynash foydali. Bunday holatda, birorta korrupsiyaviy vaziyat sahnalashtirilib, undagi qahramonlar rollarini o’quvchilarning o’zlari jonlantiradilar[23]. Dars mashg’ulotlari davomida **korrupsiyaga qarshi qaratilgan video materiallardan** ham foydalanish mumkin. Bu uslubdan foydalanish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim[24]:

- Tanlangan video material sizning dars mashg’ulotingiz mavzusiga mos keladimi?
- Video material ta’lim oluvchilarning yosh chegarasiga munosibmi?
- Ushbu video material ta’lim oluvchilarni korrupsiya haqida mazmunli muhokamalarga jalb qila oladimi?
- Ushbu material ta’lim oluvchilarga o’z huquqlari va majburiyatlarini anglab yetishlari uchun qay darajada imkon beradi?



– Video material qisqa hamda imkon darajasida 2-8 daqiqa davom etadigan bo'lishi lozim. Bu – takrorlash, muhokama qilish va tahlil qilish uchun vaqt ajratish imkoniyatini beradi. 8 daqiqadan kamroq videolar qiziqish va o'rganish motivatsiyasini oshiradi;

– Video material oddiy syujetli qisqa hayotiy hikoyaga asoslangan bo'lishi mumkin;

– Video materialda monolog yoki dialoglar mavjud bo'lmasligi ham ijobiy ahamiyat kasb etadi. Sababi ta'lim oluvchilar diqqatlarini materialda nimalar sodir bo'layotganiga qaratadilar.

Korrupsiyaga qarshi ta'limni joriy etish oltita yondashuv bilan amalga oshirilishi mumkin[25]:

1) **“Muammoli ta'lim” o'rganish usuli.** Ta'lim oluvchilar uchun asosiy manbalar sifatida hayotiy misollardan foydalanadi. O'quvchilar tanqidiy fikrlash orqali muammolarni hal qilishni o'rganishga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuv muammoli savollar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va o'z izlanishlarini boshqalarga taqdim etish bilan ahamiyatlidir;

2) **“Loyihaga asoslangan ta'lim” usuli.** Bu uslub o'quvchilarni haqiqiy fan materiallariga tayangan holda berilgan topshiriqlarni yakka tartibda (individual) yoki jamoaviy tarzda bajarishga undaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashini rag'batlantiradi. Yakunda esa o'quvchi o'z “mahsuloti”ni yaratadi;

3) **“Mehnatga asoslangan ta'lim” usuli.** Bu o'rganish usuli o'quvchilarga o'z “ish joylari” (sinf xonasi, maktab hududi)dagi mavjud imkoniyatlardan foydalanishga sharoit yaratadi.

4) **“Xizmat ko'rsatishga asoslangan ta'lim” usuli.** Bu o'qitish metodologiyasidan foydalanish ijtimoiy xizmat va ta'lim muassasasining birgalikdagi integratsiyalashgan ko'rinishini aks ettiruvchi tuzilmadir. Ta'lim muassasasi joylashgan hududdagi turli jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlar tashkil qilinadi. Ta'lim oluvchilar turli soha vakillari bilan bevosita muloqotga kirishish hamda o'zlarini qiziqtirgan mavzularda suhbat o'tkazishlari mumkin bo'ladi;

5) **“Kooperativ ta'lim” usuli** bu – ta'lim maqsadlariga erishishda kichik guruhlar bilan ishlashni rag'batlantiradi. Bunday yondashuv ta'lim sharoitlarini yuqori darajada oshirishda hamkorlik qilishni talab etadi;

6) **“Qiyosiy tahlil” ta'lim usuli** – mavzuga bag'ishlangan materiallarni o'rganish orqali qiyosiy tahlil yuritish, tahliliy xulosalarni tushuntirish, tahlillar ro'yhatini shakllantirish asnosida umumiy xulosalar chiqarish (bu o'yin shaklida ham tashkil etilishi mumkin).

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, huquqiy madaniyatning darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lish bilangina belgilanmaydi. Huquqiy madaniyat – qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati hamdir. Huquqiy madaniyat – turli mojarolarni hal qilishda qonunga yozud qonuniy talablarga zid kuchlardan foydalanishni rad etishdir.

Demokratik jamiyatning har bir a'zosi o'z ishini bajarishda doimo xolis bo'lishi va qonunga tayangan holda ish ko'rishi lozimdir. Zero, yuqori huquqiy madaniyat, yetuk axloq hamda ma'naviy kamolot egasi bo'lgan insonlardan “nafs qullari” yetishib



chiqmaydi. Maqsadimiz esa – bizdan keyingi shakllanayotgan avlodga adolatga asoslangan sog'lom turmush-tarzi va halol jamiyatni qoldirish bo'lishi kerak.

Bugun, manashu yurtning har bir mas'ul fuqarosi barcha sohalarga e'tibor qaratib, undagi kamchiliklar tuzatsak va bo'shliqlarni to'ldirsakgina ijobiy natijalarga erishamiz. Mamlakatimizda fuqorolik jamiyatini barpo etishdagi eng fazilatli ishlardan biri bu – jonkuyar fuqarolarimizning birgalikdagi korrupsiyaga qarshi kurashidir.

Bugungi yoshlarimizning yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda – oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, jamoat tashkilotlari qatorida – barcha turdagi ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir. Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari hamkorlikda ish olib borsagina, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini isloh qilish ishlari o'zining ko'zlangan maqsadlariga erishadi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O'zbekiston NMIU, 2017. – B. 10.
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/01/24/president-speech/>
3. <https://yuz.uz/uz/news/sohibqiron-siyomosiga-ehtirom-yohud-adolat-har-bir-ishdahamrohimiz-va-dasturimiz-bolsin>
4. Kulturayev Sh. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari / http://www.ombudsman.uz/oz/docs/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-takomillashtirish-masalalari#_ftn1
5. Aslonov J.A., Yusufjonov O.A. Korrupsiya fenomenini o'rganishdagi ilmiy nazariy yondashuvlar va O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 6. – B. 294.
6. Allaberganov K.D. Korrupsiya–jamiyatni yemiruvchi omil / <https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=45948>
7. Bu usul boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.
8. Bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya'ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko'proq erkinlik berish va h.k.
9. Demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.



10. Korrupsiya: uning tarixiy ildizlari, korrupsiyaga qarshi kurash usullari / <https://anticorruption.uz/uz/item/what-is-corruption>
11. Shaxriyorov H.Sh. Korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlar tajribasi / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2022. – B. 776.; Hayitov J.M. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash choratadbirlari mamlakat taraqqiyoti omili sifatida / VOLUME 1 | ISSUE 11 | 2021. – B. 1224.
12. Xushboqova N.G'. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2022. – B. 825.
13. Allaberganov K.D. Huquqiy ong tushunchasini o'rganishning nazariy jihatlarini // Academic research in educational sciences. VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020. – B. 756.
14. Dusmatova M. Yuksak huquqiy madaniyatni yuksaltirish – korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim ustuvor yo'nalishidir / <https://tashviqot.uz/index.php/2022/10/04/2506/>
15. Исроилов Б.И., Гадоев Э.Ф. Коррупция тушунчаси ва унга қарши курашишга оид атамалар изоҳли луғати. – Тошкент: “Tafakkur” нашриёти, 2019. – Б. 88.
16. Abdullayeva F.Sh., Saidjonova Z.S. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish davr talabi // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. – B. 410.
17. <https://lex.uz/docs/-3088008#-3088183>
18. Xamraqulov Sh. Korrupsiyaga qarshi kurashish – davlat va jamiyat xavfsizligi garovi / <https://civil.uz/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-davlat-va-jamiyat-xavfsizligi-garovi/>
19. Nigmatov A.X., Misaboyeva M.B. Korrupsiya – fuqarolik jamiyatining tanazzuli / Academic research in educational sciences. VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021. – B. 128.
20. Gaibnazarov S. Korrupsiyaga qarshi kurash tushunchasini o'rganishning nazariy masalalari / Academic research in educational sciences. VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020. – B. 1062.
21. Aripov A.S. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini takomillashtirish / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2022. – B. 556.
22. Исроилов Б.И., Гадоев Э.Ф. Коррупция тушунчаси ва унга қарши курашишга оид атамалар изоҳли луғати. – Тошкент: “Tafakkur” нашриёти, 2019. – Б. 81.
23. Madumarov T.T. Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish – bugungi kunning dolzarb masalasidir! / <https://adu.uz/uz/news/article/1581>
24. Improving secondary school students' understanding of the meaning and impact of corruption. Teacher's Guide / https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/secondary/Secondary_Education_Teachers_Guide_Anti-Corruption.pdf
25. Kokom Komalasari and Didin Saripudin / American Journal of Applied Sciences 2015, 12 (6): 445-451. [Integration_of_Anti-Corruption_Education_in_School.pdf](#)